



## QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI HAJMINI OSHIRISH - OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH OMILI SIFATIDA

Dedajanova Xilola Baxtiyor qizi  
Namangan muhandislik-texnologiya instituti  
1b-22 guruh talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.10947421>

### ARTICLE INFO

Received: 5<sup>th</sup> April 2024  
Accepted: 6<sup>th</sup> April 2024  
Published: 8<sup>th</sup> April 2024

### KEYWORDS

oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi, sog'lom ovqatlanishini ta'minlash, innovatsiyalar, fermer xo'jaliklari, dehqon va tomorqa xo'jaliklari, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, qo'llab-quvvatlash beqarorligi

### Kirish

Bugungi kunda respublikamizda aholining qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish hamda oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta'sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun axborot-konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg'or texnologiya va usullar bo'yicha o'qitish uchun agro-konsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tganlaridek: "Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo'jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo'lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e'tibor qaratib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining "yashil texnologiyalar" dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo'yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.

Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida to'liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish tarafdorimiz. Savdo yo'llari xavfsizligi va ochiqligini ta'minlash davlatlararo munosabatlarda o'zgarimas tamoyil bo'lib qolishi zarur"[1].

### ABSTRACT

Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining ahamiyati, uni rivojlantirish masalalari bayon etilgan. Shuningdek, sohada hududlar bo'yicha mahsulot yetishtirish ko'rsatkichlari tahlil etilgan. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida mavjud bo'lgan ayrim muammolar ko'rsatib o'tilgan hamda sohani rivojlantirish borasida tegishli takliflar berilgan.

Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarimizda asosiy e'tiborni suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishga zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etish, xo'jalik va korxonalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, eng muhimi, dehqon va fermerlarning og'irini yengil qilishga qaratilmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish mumkinki, mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat xavfsizligini va sog'lom ovqatlanishini ta'minlash zarurati davlat siyosatini yangicha va xalqaro tan olingan ilg'or amaliyotga yondashgan holda yuritishni talab etmoqda.

### Asosiy qism

Barcha mamlakatlarning qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan islohotlarda asosan - sohaga innovatsiyalarni jalb etish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, qishloq xo'jaligiga sanoatni olib kirishni jadallashtirish, investitsiyalar jalb etish ko'lamini oshirish kabi bir qator dolzarb masalalarini yechimlarini topish, ularni amaliyotga joriy etish kabi chora-tadbirlarni ko'rmoqda [9].

Shuningdek, bu sohada raqamlashtirish jarayonlarini kuchaytirish, innovatsiyalarni olib kirish, axborot ta'minotida yangi usullarini qo'llash, mahsulotlar eksportini yanada rivojlantirish ayni dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda [5,6].

Sayyoramizda bugungi kundagi aholi soni 8,1 milliarddan oshdi. Tabiiyki, aholi soni o'sib borar ekan, ularni oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabi ortadi. Demak, bunda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini hajmini oshirishni taqazo etadi [2,3].

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotlar dinamikasini o'rgangan holda, aholiga oziq-ovqat mahsulotlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qay darajada yetkazib berilayotganini tahlil etishimiz mumkin.

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 404 648,6 mlrd, so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 103,9 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 202 679,1 mlrd, so'mni (104,2 %), chorvachilik mahsulotlari – 201 969,5 mlrd, so'mni (103,7 %) tashkil qildi.

### 1-jadval

#### Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlari

Hududlar	Trln so'm	O'sish sur'ati % da
Samarqand	49,1	4,3
Andijon	41,3	4,0
Qashqadaryo	38,6	4,2
Farg'ona	38,2	3,7
Toshkent	38,0	3,6
Buxoro	37,3	3,8
Surxondaryo	32,7	3,6
Namangan	29,9	4,4
Jizzax	26,4	4,0
Xorazm	26,2	4,0
Navoiy	18,2	1,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	15,3	4,0
Sirdaryo	13,4	6,2

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Samarqand (49,1 trln. so'm), Andijon (41,3 trln. so'm), Qashqadaryo (38,6 trln. so'm) va Farg'ona (38,2 trln. so'm) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (13,4 trln. so'm) Qoraqalpog'iston Respublikasi (15,3 trln. so'm) va Navoiy viloyatini (18,2 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin. Yuqori o'sish sur'atlari Sirdaryo (106,2 %), Namangan (104,4 %), Samarqand (104,3 %) va Qashqadaryo (104,2 %) viloyatlarida qayd etildi [8].

Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 63,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 % i fermer xo'jaliklariga, 7,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

## 2-jadval

**Etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi**

Hududlar	Fermer xo'jaliklari	Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	30,9	60,8	8,3
Andijon	32,0	62,8	5,2
Buxoro	30,1	63,8	6,1
Jizzax	25,8	66,4	7,8
Qashqadaryo	25,6	69,3	5,1
Navoiy	21,1	72,0	6,9
Namangan	38,3	57,1	4,6
Samarqand	38,1	57,7	4,2
Surxondaryo	24,5	67,1	8,4
Sirdaryo	36,4	50,4	13,2
Toshkent	15,5	66,9	17,6
Farg'ona	40,0	56,4	3,6
Xorazm	25,6	68,3	6,1

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ulushining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

2023 yilning yanvar-dekabr oylari yakuniga ko'ra, ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatida (40,0 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (72,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (17,6 %) qayd etildi [8].

## 3-jadval

**Dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishda xo'jalik toifalarining ulushi**

Xo'jalik sub'ektlari toifalari	Dehqonchilik	Chorvachilik
Fermer xo'jaliklari	53,2	6,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	37,9	88,4

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	8,9	5,3
--	-----	-----

Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha eng kam ko'rsatkich Toshkent viloyatida (15,5 %), dehqon va tomorqa xo'jaliklarining eng kam ulushi Sirdaryo viloyatida (50,4 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Farg'ona viloyatida (3,6 %) kuzatildi.

Yuqoridagi ko'rsatkichlar tahlilidan ma'lumki, respublikamiz qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish ko'rsatkichlari o'sish dinamikasida bo'lgan. Demak, bu aholini oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish darajasi ortayotganligidan dalolat beradi. Biroq, soha tahlilini o'rganadigan bo'lsak, yechimini kutayotgan ayrim muammolar ham mavjud.

Shuningdek, tadqiqotlarimizda doirasida jahonda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudki, ular aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda [4,7]. Jumladan:

- mamlakat iqtisodiyotini kuchsizligi, rivojlanish dinamikasining pastligi;
- oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasini qo'llab-quvvatlashning beqarorligi;
- ayrim mamlakatlarda aholining qashshoq qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, yordam berish siyosatini pastligi yoki umuman yo'qligi;
- sohani rivojlanishida yetuk salohiyatli kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi;
- dunyo iqtisodiyotida turli xil vaziyatlarni yuzaga kelishi;
- qashshoq mamlakatlarda sohani rivojlantirish uchun kerakli bo'lgan yangi texnika va texnologiyalarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar va boshqa shu kabilarni sanab o'tishimiz mumkin.

### **Xulosa va takliflar**

Yuqoridagi fikrlarda kelib chiqqan holda shuni ta'kidlab o'tishimiz mumkinki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri — qishloq xo'jaligini rivojlantirish, sohadagi **xalqaro hamkorlikni** rivojlantirish, mavjud muammolarni bartaraf etish, sohani rivojlanishning yangi yo'llarini ishlab chiqish hisoblanadi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy soha hisoblangan qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun, sohadagi muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz: sohaga zamonaviy texnologiyalarni jalb etishni kengaytirish, qishloq xo'jaligi ekinlarining tabiat inijliklariga chidamli shuningdek serhosil, eksportbop navlarini yaratish, chorvachilikda zotdor hayvonlar salmog'ini oshirish, fermer va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun axborot va maslahat xizmatlarini ko'rsatuvchi markazlarni tashkil etish, dunyo aholisi uchun eng zarur mahsulotlar savdosini sun'iy boshqarmaslik, davlatlararo munosabatalarni o'zgarimas printsip asosida tashkillashtirish, oziq-ovqat mahsulotlarining jahon bozori bahosini sun'iy o'zgartirishga yo'l qo'ymaslik, oziq-ovqat va qishloq xo'jalik sohasiga investitsiyalar hajmini oshirish va boshqa shu kabilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

1. Мирзиёев Ш.М. Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция иштирокчиларига. <https://president.uz/uz/lists/view/6645>
2. Самарқандда Озиқ-овқат хавфсизлиги бўйича халқаро конференция бошланди. <https://www.imv.uz/oz/news/category/yangiliklar/post-1532>

3. Шарипов Қ, Халқаро форматдаги озиқ-овқат хавсизлигини таъминлашда бир-бирини тўлдириш ҳамкорлиги. <https://yuz.uz/news/xalqaro-formatdagi-oziq-ovqat-xavsizligini-taminlashda-bir-birini-toldirish-hamkorligi>
4. БН Дедажанов, ФИ Эргашева ПРОБЛЕМЫ ПОДДЕРЖКИ И СТИМУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ-ЭКСПОРТЕРОВ И ПУТИ ИХ ПРЕОДОЛЕНИЯ ВЕСТНИК РОССИЙСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО УНИВЕРСИТЕТА имени ГВ ПЛЕХАНОВА. ВСТУПЛЕНИЕ. ПУТЬ В НАУКУ № 3 (27) 2019. [https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20\(27\)%202019.pdf#page=24](https://www.rea.ru/ru/org/managements/izdcentr/Documents/%E2%84%96%203%20(27)%202019.pdf#page=24)
5. Эргашева, Ф. И. (2023). ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИДА АХБОРОТЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. SPAIN" PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARY RESEARCH", 14(1).
6. Dedajanov, B., & Sobirov, M. (2021). The essence of innovative activity and analysis indicators. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 1978-1990.
7. Dedajanov, B. N., & Ergasheva, F. I. (2019). ISSUES OF SUPPORT AND STIMULATION OF EXPORTING ENTERPRISES AND WAYS OF THEIR ELIMINATION. *Вестник Российского экономического университета им. ГВ Плеханова. Вступление. Путь в науку*, (3), 92-103.
8. O'zbekiston Respublikasi Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-2#yanvar-dekabr>
9. <https://www.fao.org/3/mb729r/mb729r.pdf>

INNOVATIVE  
ACADEMY